

QOBILIYAT VA NOTIQLIK O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK MASALASI

Boboxodjaev Rashidjon Xashimovich

*Toshkent davlat transport universiteti,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent,*

“Tahririy nashriyot va poligrafiya” bo‘limi boshlig‘i

Annotatsiya: *Ushbu maqolada qobiliyat va notiqlik o‘rtasidagi bog‘liqlik masalasi ilmiy va ijtimoiy nuqtai nazardan tahlil etiladi. Qobiliyat insonning ijtimoiy va intellektual rivojida hal qiluvchi omillardan biri sifatida ta‘riflanadi, notiqlik esa uning amaliy ifodasi, ta‘sirchan muloqot vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Maqolada tarixiy misollar, ilm-fan taraqqiyoti va rahbarlik amaliyoti orqali qobiliyat va notiqlikning jamiyatdagi o‘rni va ahamiyati chuqur tahlil etiladi.*

Kalit so‘zlar: *Qobiliyat, notiqlik, rahbarlik, ijtimoiy rivojlanish, bilim, ta‘sirchanlik, tafakkur, globallashtirish.*

Annotation: *This article explores the interrelation between individual ability and oratory from both scientific and social perspectives. Ability is presented as a key factor in human intellectual and social development, while oratory is viewed as its practical expression and tool of influence. The paper analyzes the societal importance of both concepts through historical examples, scientific progress, and leadership practice.*

Keywords: *Ability, oratory, leadership, social development, knowledge, influence, intellect, globalization.*

Qobiliyat va notiqlik – insonning muvaffaqiyatli hayot kechirishida, jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lishida va boshqalarga ta‘sir ko‘rsatishida eng muhim omillardan hisoblanadi. Ular o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, bir-birini to‘ldiradi va mustahkamlaydi. Qobiliyat tufayli inson ma‘lum sohada yetuklikka erishsa, notiqlik orqali o‘z g‘oya va bilimlarini keng ommaga yetkazadi. Qobiliyat – insonning tabiiy salohiyati, bilim va ko‘nikmalarni tez o‘zlashtirish va ularni amalda qo‘llash qobiliyatidir. Bu xususiyat insonning faoliyat sohalarida muvaffaqiyat qozonishida muhim o‘rin tutadi. Psixologiya

fanida qobiliyat umumiy (aqliy salohiyat, tafakkur tezligi) va maxsus (muayyan sohaga oid qobiliyat) turlarga bo'linadi. Jamiyat taraqqiyotida qobiliyatli shaxslar muhim rol o'ynaydi. Ular ilmiy kashfiyotlar, ijtimoiy islohotlar, yangi g'oyalarni hayotga tatbiq etadilar. Notqlik – insonning gapirish, fikrni ravshan ifoda qilish, boshqalarni ishontrish qobiliyatidir. U tafakkur, bilim va hayotiy tajribaning yorqin aksidir. Ma'ruzachi, rahbar yoki ijtimoiy faol shaxs uchun notqlik qobiliyati muhim ahamiyatga ega. Bu faqatgina til bilish bilan emas, balki psixologik sezgirlik, auditoriya bilan muloqot qurish mahoratlari bilan bog'liqdir. Qobiliyat— insoniyatning necha ming yillik tadrijiy ri- vojlanish davrida aloqida kishilarning ilm- fanda, rahbar- lik saloqiyatida, iqtisodiy yoki siyosiy taraqqiyotda san'at va adabiyotda erishgan oliy ne'matdir. Bugungi kunda insoniyat yarat- gan barcha moddiy va ma'naviy boyliklar esa ana shu insoniyat qobiliyatining buyuk ko'rinishlaridan biridir. Shu ma'noda qobiliyatlilikni, boshqacharoq qilib ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida rivojlanadigan va jamiyatning madaniy, ma'naviy va moddiy, texnikaviy bazasini yaratuvchi aloqida shaxslarning (raqbar, ilm-fan, san'at va adabiyot kishilari) tafakkuri mah- suli ham deyish mumkin. Alohida qobiliyatli (professional) shaxslar tabiat-jamiyat qonunlarini kashf etadilar, butun ba- shariyat ahli esa ulardan bahramand bo'ladilar. Bu ijtimoiy kashfiyotlar ayni paytda iqtidorli, professional qrbiliyatli shaxslarning yanada ko'plab voyaga yetishiga qulay shart-sharoit hozirlaydi va jamiyat taraqqiyoti uchun ulug'vor zamin yaratadi» . Buyuk rahbar xodimlar, daholar xayot va faoliyatini tahlil qilish ularning xarakterida maqsad sari qat'iy intilish kabi ajoyib rahbarlik, tashkilotchilik, ishbilarmonlik kabi insoniy fazilatlar muhim rol o'inaganligidan dalolat beradi.

Ammo keyingi uch asr shunday professional rahbar va olim- larni ko'plab voyaga yetkazib bergani vaular taraqqiyot maqsuliga bog'liq qolda o'zgarish va yangiliklarga nihoyatda boy bo'lgan- ligi bilan boshqa asrlardan tubdan farq qiladi. Ana shu uch asrni o'zaro qiyoylaydigan bo'lsak, yigirmanchi asrda ulkan ijod- korlik va jadal inqilobiy o'zgarishlar yuz berganligini ko'ramiz.

Zero, shu asrda jahon xalqlarining aksariyati savodxon bo'ldi, shu asrda radio, televidenie ixtiro etildi, insonlar kosmosgauchirildi, elektron qisoblash mashinalari (kompyu- terlar), axborot kommunikatsiya texnologiyalari va boshqalar yaratildi. Bunday yutuqlarni sanab sanog'iga

yetib bo'lmaydi. Bu larning hammasiga insonning favkulodda qobiliyati sababchi- dir. Insoniyat butun tarixiy taraqqiyot davomida o'zi ham tabiatning bir bo'lagi bo'lgani holda tabiat kuchlarini zabt etish, uning sirlarini o'rganib, mehnat jarayonlarini yengagallashtirish, moddiy turmushni yaxshilash va madaniy turmush darajasini yuksaltirish uchun intilib va kurashib kelmoqda.

Hamma zamonlarda ham tafakkur ehtirolari va inson qobiliyatining kuchi, serkirraligi, qamrovi kengligi va bilimdon- ligi jihatdan zabardast iktidorli rahbarlarga muhtoj bo'lib kelgan va bundan keyin ham shunday bo'lib qolishi muqarrar. Bu o'zgarishlar insoniyat uchun iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy soha- larda yangi maqsad va boshqaruv vazifalarini qo'yimoqda.

Bu murojaat bilan prezidentimiz mustaqillik so'qmoqlari- dan qiynalib bo'lsa-da, o'z xalqini iqtisodiy tanglikdan olib chiqishning yagonayo'li ilm-fanni rivojlantirish, iqtidorli yoshlarni voyaga yetkazish, tarbiyalash bilan yangi texnika va texno- logiyalar yaratish, ma'naviy, mafkuraviy va madaniy daraja- mizni yuksaklikka olib chiqish ekanligini uqtirib, har bir rahbar, fuqaro va ziyoli davlatni boshqarishning yangi tizimini mahorat bilan o'rganib, yuksak taraqqiyot talablariga javob berishiga chaqirdi. Jahon tarixi buyuk rahbar va olimlarning faoliyati bilan to'ldirilgan. Ular nafaqat qobiliyatli, balki notiq ham bo'lgan. Masalan, Abulqosim Firdavsiy, Ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Abulrayhon Beruniy kabi mutafakkirlar o'z falsafiy va ilmiy qarashlarini ommaga yetkazishda notiqlik qobiliyatidan unumli foydalanishgan.

Mustahkam liderlik sifatiga ega bo'lgan shaxslar, jumladan, Islom Karimov, Cherrill, Ruzvelt, Yuliy Sezar, Mustafa Kemal Atatürk kabilar notiqlik orqali o'z yurtdoshlarini ruhlantirib, jamiyatdagi o'zgarishlarga yetaklaganlar.

Rahbarlik – murakkab ijtimoiy hodisa bo'lib, unda qobiliyat va notiqlik katta o'rin tutadi. Qobiliyatli rahbar o'z sohasini puxta bilgan, muammolarni tez anglab yecha oladigan shaxsdir. Ammo buning o'zi yetarli emas. Bunday rahbar o'z fikr va rejalarini jamoasiga ishonitirish, ularni ruhlantirish uchun notiqlik mahoratlariga ega bo'lishi kerak. Notiqlik rahbarning jamoa bilan ijobiy psixologik muhit yaratishiga, o'zaro ishonchni shakllantirishiga yordam beradi.

XXI asr axborot texnologiyalari va tezkor muloqot asri bo'lib, bu jarayonlar qobiliyat va notiqlikka bo'lgan talabni yanada oshirdi. Hozirgi rahbarlar, olimlar va ijtimoiy arboblarning nafaqat bilimli, balki notiq ham bo'lishi kerak.

Axborot oqimida e'tibor torta oladigan, tushunarli va ta'sirchan fikr ayta oladigan shaxslar muvaffaqiyat qozonmoqda.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularni ilmiy va ma'naviy yetuk qilib tarbiyalashga qaratilgan qator davlat dasturlari ishlab chiqildi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev rahnamoligida ta'lim sohasiga alohida e'tibor qaratildi. «Yangi O'zbekiston – yangi imkoniyatlar» tamoyili asosida har bir sohada qobiliyatli va notiq kadrlar yetishib chiqmoqda.

Xulosa: Qobiliyat va notqlik insoniyat taraqqiyotining mustahkam poydevoridir. Bu ikki fazilat o'zaro bog'liq bo'lib, shaxsni yuksaltirish, jamiyatda ta'sir ko'rsatish, ilmiy va ijtimoiy kashfiyotlarni amalga oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Zamonaviy dunyoda yuqori qobiliyatga ega, bir vaqtning o'zida notqlik qobiliyatini ham rivojlantirgan shaxslar nafaqat o'z sohasida, balki global miqyosda ham o'z o'rnini topishi mumkin.

References:

1. Babaxodjayev R. Русский пласт в гидронимии Ташкента и Ташкентской области // Современные проблемы филологии. – 2020.
2. Babaxodjayev R. Проблемы славянской лексикологии и фразеологии // славянские языки: системно-описательный и социокультурный аспекты исследования. – 2017.
3. Бобоходжаев Р. Х. Применение интерактивных методов при дистанционном обучении русскому языку // Uzbek scholar journal. – 2022. – т. 10. – с. 179-182.
4. Boboxo'Jayev R. H. Learning foreign languages online // Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 6. – С. 840-845.
5. Суюнова Д.Д. Научно-теоретический подход к реализации цифровой трансформации внедрения корпоративного управления в акционерных обществах. (Актуальные проблемы развития бизнеса и предпринимчивости в условиях цифровой экономики, международная научно-практическая конференция, 23 декабря 2022 г.).
6. Суюнова Д.Д. Анализ состояния внедрения и развития цифровой экономики в Узбекистане. (Цифровая трансформация в бизнесе и экономике, международная научно-практическая конференция, 21 июня 2023 г.).
7. Суюнова Д.Д. Пути использования автоматизированной

информационной системы управления в обеспечении эффективности корпоративного управления. (Цифровая трансформация в бизнесе и экономике, международная научно-практическая конференция, 21 июня 2023 г.).

8. Суюнова Д.Д. Использование цифровых технологий в совершенствовании корпоративного управления. (Цифровая трансформация в бизнесе и экономике, международная научно-практическая конференция, январь 2024 г.).

9. Babaxodjaev, Rashid. "Некоторые методологические вопросы терминологии." учебная терминосфера по избранной специальности сборник материалов научно-практического семинара (2010).

10. Babaxodjaev R. Русский пласт в гидронимии Ташкента и Ташкентской области //Современные проблемы филологии. – 2020.

11. Babaxodjaev R. Русский пласт в гидронимии Ташкента и Ташкентской области //Современные проблемы филологии. – 2020.

12. Babaxodjaev R. Проблемы славянской лексикологии и фразеологии //славянские языки: системно-описательный и социокультурный аспекты исследования. – 2017.